

## MAQOMLARNING TARIXIY SHAKLLANISHI JARAYONI

Eshov Obidjon  
Botirov Nuriddin  
Rajabov Lutfulla

*(Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi, O'zbekiston)*

**Annotatsiya:** *Maqomlarning, mumtoz musiqaning tarixiy shakllanishi va ularning janrlari haqida so'z boradi. Mualliflar madaniy ma'lumotlar hamda yozma manbalarga tayanib, mavjud ilmiy – tarixiy adabiyotlar asosida muammoga aniqliklar kiritilgan. Mumtoz musiqaning tarixiy shakllanishi bo'yicha mavjud o'ziga xos yondashuvlar va nazariyalarni qiyosiy tahlil etgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maqom, ansambl, mumtoz musiqa, bastakor, sozanda, meros, shashmaqom, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh Iroq*

**Аннотация:** *Обсуждается историческое становление макомов, классической музыки и ее жанров. Авторы, опираясь на культурологическую информацию и письменные источники, внес ясность в проблему на основе имеющейся научной и исторической литературы.*

**Ключевые слова:** *маком, ансамбль, классическая музыка, композитор, музыкант, наследие, шашмаком, Бузрук, Рост, Наво, Дугох, Сегох Ирак.*

Bugun biz ana shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taraqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yod etamiz.

Har doim madaniyat va san'at haqida so'z yuritilganida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Ana shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taraqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yod etamiz"<sup>4</sup>, degan so'zlari quloqlarim ostida jaranglab turaveradi.

Bu barcha san'at ixlosmandlari, soha vakillari va yosh iqtidor egalariga maqom san'ati negizida nechog'liq ulkan ma'no va mazmun mujassam ekanini yana bir bor anglatib, tasdiqlab turadi.

Dunyodagi barcha xalqning borligidan darak beruvchi muhim omil bu millatning tilidir. Uning buyukligini ifodalovchi mezon - bu ma'naviyatidir. Demak, ma'naviyatning asosiy tarmoqlaridan biri musiqa ekanligi barchaga ayondir.

---

<sup>4</sup> Sh. M.Mirziyoyev Xalqaro maqom festivalinini ochilish marosimida so'zlagan nutqi /Xalq so'zi gazetasi. 06.sentyabr 2018 yil

Bu olamda har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan musiqiy an'alariga egadir. Shular qatorida olib qaraydigan bo'lsak, o'zbek musiqasi ham juda qadimiy va o'ziga xos an'alariga ega.

Musiqqa madaniyatining ildizlari qadimgi davrlarda shakllangan xalq musiqqa ijodiga borib taqaladi. Har bir xalqning uzoq asrlardan beri yo'qolmay kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma'naviy meros bo'lib qolgan maqom, kuy va qo'shiq, ashulalari bor.

XX asrning 20 – yillari davomida o'zbek xalq qo'shiqlari mazmunida asosan turmush sharoitlarini kuylash va ijrochilik mahoratlarini yana ham oshirishdan iborat edi. Lekin bu qo'shiqlarning asosida o'zbek xalqining boy musiqiy merosi turar edi. Bu meros qadimdan avloddan-avlodga og'zaki holatda yetib kelgan. O'zbek xalq professional og'zaki musiqqa merosida asosiy o'rinni maqomlar egallaydi<sup>5</sup>. Maqomlar mazmuni asosan lirik bo'lib ulardagi klassik she'rlar-Hofiz, Navoiy, Bedil, Jomiy, Muqimiylarga mansubdir. Maqom musiqalarida xalq she'rlari ham ishlatiladi. O'zbek – tojik musiqqa merosi Buxoro maqomi «Shashmaqom» deb nom olgankim, bular: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqdir. Har bir maqom ikki bo'limga – cholg'u bo'limi va ashula bo'limiga bo'linadi. Cholg'u bo'limi – Mushkilot va ashula bo'limi Nasr deb nomlangan.

1920 yillardan boshlab xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. 1919 – yilda Turkiston respublikasida badiiy – etnografik komissiya tuzildi va bu komissiya hay'atida V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar<sup>6</sup>. Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'rinda «Shashmaqom»ni va O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi. 1923 – yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligida komissiya Buxoroda bo'lib Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilarning maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Lekin bu noyob xalq durdonalarini yozib olishda ancha qiyinchiliklar ham bo'lgan, chunki maqomlardagi qochirmalar, nolalar va kuylarning yo'nalishi Uspenskiylarni qiynab qo'yishdi. Shashmaqom bilan bir qatorda kamissiya hayati xalq qo'shiq va kuylarini ham yozib olgan edilar.

Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq og'zaki musiqqa ijodiyotining ko'hna namunolari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro'zi Ajam, Navro'zi Xoro, Navro'zi Sabo nomli maqom asarlarida ko'ramiz. Shundayki, bu asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy namunasi” (“birlamchi chiziq” –G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu hol bejiz emas, albatta. Ma'lumki, ko'pgina Sharq xalqlari uzoq o'tmishdan buyon Navro'z bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan ma'lum kuy va ashilalarni ijro etib

<sup>5</sup>.Solomonova T.Ye «O'zbek musiqasi tarixi», Toshkent, «O'qituvchi», 1981.

<sup>6</sup> Karomatov F.M «O'zbekskiy muzikalnie instrumenti». Toshkent, 1982.

kelganlar. O'ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an'anaviy hayotidan muqim o'rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o'zining yuksak rivojlangan ko'rinishlarga ega bo'lganligi haqiqatga yaqin bo'lsa kerak.

Xususan, atoqli musiqashunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori Ishaq Rajabovning bu boradagi malakali ko'rsatmalari e'tiborlidir: "Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo'lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan... Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyot, falsafa va matematika fanlari bilan bog'liq ekanligini uqtirib o'tganlar". Professor Ravshan Yunusovning ta'kidlashicha: "Sharq maqomoti ko'hna, ancha murakkab falsafiy – estetik, musiqiy – nazariy hamda amaliy asoslarga egadir".

Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyatining shakllanib, rivoj topuvchi jonli jarayoni ekanligi hammaga ma'lum. Uning namoyandalari bo'lmish sozanda, xonanda va bastakorlar xalq madaniyatining o'ziga xos mutasaddilari sifatida e'zozga loyiq ko'rilgan.

Demak, maqomlar nafaqat Sharq musiqa madaniyati, balki insoniyat qo'lga kiritgan ulkan hodisa bo'ldi. Zotan maqomlar insonlarda sof, muqaddas tuyg'ularni uyg'otuvchi, ruhiyatni nafs to'siqlari uzra asl maqomlari sari yuksalishga da'vat etuvchi ma'naviy navolarimizdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xalq so'zi gazetasi. 06.sentyabr 2018 yil
2. Solomonova T.Ye «O'zbek musiqasi tarixi», Toshkent – 1981.
3. Karomatov F.M «Узбекские музыкальные инструменты». Toshkent – 1982.
4. [http://www.classicmusic.uz/maqomlar tarixiga doir.htm](http://www.classicmusic.uz/maqomlar_tarixiga_doir.htm)
5. Мурадов М. К. Всесторонне развитой личности средствами музыкального искусства // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 35-38.
6. Kurbanova M. S. Musical Folklore And The Use Of Folk Instruments In The Creative Development Of Children // SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 53.